

Rektor va yetakchilar uchrashuvi



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshev institutning Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotining eng faol va tashabbuskor yetakchilari bilan uchrashdi.



Asosiy maqsad, yangi o'quv yilida talaba yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular safini yanada kengaytirish, talabalarga sifatli ta'lim berish, ma'nnaviyatini yuksaltirish va bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha rejalar ishlab chiqish.



Shuningdek, uchrashuvda yetakchilarga qo'shimcha vakolatlar berish masalalari ham ko'rib chiqildi.



Yoshlar yetakchilarining har birini funksiyasi va vazifalari haqida ma'lumotlar berildi. Institutda tahsil olayotgan o'g'il-qizlarni respublika va xalqaro tanlovlarga tayyorlash, ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanayotgan yoshlarga ko'maklashish borasida fikrlar bildirildi. Institutimizda talabalar, jumladan, TTJ da istiqomat qilayotganlar uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishtirildi.



Uchrashuvda institut rektori barcha yetakchilarni mamlakatimizda kechayotgan islohotlarga kamarbasta bo'lishga chaqirdi.



Shuningdek, yig'lishda institutimizdan "Ish va sayohat" dasturi asosida Germaniya safarida bo'lib qaytgan talabalar o'z taassurotlari bilan o'rtoqlashdi.



Uchrashuvda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori Ibrohim Yo'ldoshev Yoshlar ittifoqi kengashi qoshida tashkil etilgan "Navo" ansambliga tashakkurnomani topshirdi.

Matbuot kotibi